№6/2026



ADPI
Ilmiy xabarnomasi

ISSN 2181-4309

XALQARO BAHOLASH DASTURLARI (PISA, TIMSS, PIRLS) YONDASHUVLARI ASOSIDA MAKTABGACHA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH

Mamasodiqova Xusnida Rahimjon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya.
Maqolada PISA, TIMSS va PIRLS yondashuvlari asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda funksional savodxonlik, mantiqiy va kreativ fikrlash hamda matnni anglashning propedevtik asoslarini rivojlantirish imkoniyatlari yoritiladi.
Kalit so'zlar:
maktabgacha ta'lim, PISA, TIMSS, PIRLS, funksional savodxonlik, mantiqiy fikrlash, kreativ fikrlash.

Аннотация.
В статье рассматриваются возможности развития у детей дошкольного возраста предпосылок функциональной грамотности, логического и креативного мышления, понимания текста на основе подходов PISA, TIMSS и PIRLS.
Ключевые слова:
дошкольное образование, PISA, TIMSS, PIRLS, функциональная грамотность, логическое мышление, креативное мышление.

Abstract.
This article explores the potential of PISA, TIMSS, and PIRLS approaches for developing the foundations of functional literacy, logical and creative thinking, and text comprehension in preschool children.
Keywords:
preschool education, PISA, TIMSS, PIRLS, functional literacy, logical thinking, creative thinking.

Kirish. Maktabgacha ta'lim sifati bolaning keng ko'lamdagi bilimlarni egallashini, xususan, uning bilishga qiziqishi, nutqiy faolligi, kuzatishi, taqqoslashi, savol berishi, sodda xulosa chiqarishi va o'z fikrini ifodalay olishi bilan ham belgilanadi. Bolaning aqliy rivojlanishi o'zbek maktabgacha pedagogikasida bilimlar tizimini o'zlashtirish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish hamda yangi bilim hosil qilish uchun zarur bilish faoliyati usullarini egallash bilan bog'lanadi; ayniqsa tahlil, qiyoslash va umumlashtirish kabi aqliy harakatlarning shakllanishi muhim deb qaraladi [1, 159]. Shu sababdan, xalqaro baholash dasturlarida ustuvor bo'lgan kompetensiyaviy-kognitiv yondashuvlar maktabgacha ta'lim uchun tayyor testlar majmui sifatida emas, bolaning keyingi o'quv faoliyatiga zamin yaratuvchi metodik yo'nalish sifatida ahamiyat kasb etadi. Ushbu masalada metodologik chegarani aniq belgilash lozim. PISA 15 yoshli o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llashini baholaydi[3,3]; TIMSS matematika va tabiiy fanlarni to'rtinchi hamda sakkizinchi sinflarda baholaydi va unda bilish, qo'llash, mulohaza yuritish kognitiv domenlari ajratiladi[4,15]; PIRLS esa o'qish yutuqlarini maktab ta'limining to'rtinchi yilida o'rganadi hamda matndan aniq axborotni topish, sodda xulosa chiqarish, g'oya va axborotni talqin-integratsiya qilish, mazmun va matn elementlarini baholash jarayonlarini qamrab oladi[5,8]. Demak, ushbu dasturlar maktabgacha yoshdagi bolalarni bevosita baholamaydi. Shuning uchun tezisda ularning testlarini MTT amaliyotiga ko'chirishni nazarda tutmaydi, balki tegishli fikrlash faoliyatlarining yoshga mos propedevtik asoslarini shakllantirish masalasi markazga qo'yiladi.

Metodlar. Tadqiqot nazariy-analitik xarakterga egadir. Unda qiyosiy tahlil, kontent-tahlil, tizimlashtirish va pedagogik interpretatsiya metodlaridan foydalanildi. PISA, TIMSS va PIRLSning rasmiy baholash doiralari maktabgacha pedagogikaga oid o'zbek manbalari bilan qiyoslandi. Tahlilda uch yo'nalish ajratildi: PISA yondashuvlarining hayotiy vaziyatda bilimdan foydalanish va kreativ yechim izlashga yo'naltirilgan jihatlari; TIMSSning bilish-qo'llash-

mulohaza yuritish mantiqi; PIRLSning matn mazmunini tushunish va talqin qilish jarayonlari. Har bir yo‘nalish maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanish xususiyatlariga mos faoliyatlar – o‘yin, suhbat, kuzatish, tajriba, taqqoslash, hikoya va rasmli matn bilan ishlash – orqali pedagogik talqin qilindi. Empirik tajriba natijalari mazkur tezis predmeti emas; “Natijalar” bo‘limida qiyosiy kontent-tahlil natijalari beriladi.

Natijalar. Xalqaro baholash dasturlari yondashuvlarini maktabgacha ta’limga integratsiyalashning umumiy tamoyili qiyosiy tahlil natijasida aniqlandi: bola tayyor javobni eslab qolishdan ko‘ra, mavjud tajribasidan foydalanib vaziyatni anglash, munosabatni topish, taxmin qilish, yechim taklif etish va o‘z fikrini tushuntirishga jalb etilishi maqsadga muvofiqdir. Bu xulosa milliy maktabgacha pedagogika qarashlari bilan uyg‘unlashadi. Pedagogikaning olimlaridan bo‘lmish F.R. Qodirova va hammualliflar maktabgacha yoshdagi bolalarda analitik-sintetik tafakkurni, qiziquvchanlikni, predmetlarning muhim va muhim bo‘lmagan belgilarini ajratish hamda ularni boshqa predmetlar bilan taqqoslash ko‘nikmalarini rivojlantirishni aqliy tarbiyaning muhim vazifalari sifatida ko‘rsatadi[1, 158-159]. Olimlar ta’lim bolaning bilish qobiliyatlarini muntazam rivojlantirish, bilimlarni aniqlash va tizimlashtirish, bilish jarayonlari hamda tafakkur faolligini rivojlantirishni nazarda tutishini ham ta’kidlaydi[1, 161-162].

Maktabgacha ta’limda PISA yondashuvining metodik qiymati bolaning bilimini hayotiy yoki o‘yin vaziyatida ishlata olishiga e’tibor qaratishidadir. PISAning o‘zi 15 yoshli o‘quvchilarni baholashi sababli uning topshiriqlarini maktabgacha yoshga moslashtirib test sifatida berish to‘g‘ri emas [3, 3]. Lekin “nima qilish mumkin?”, “yana qanday yo‘l bor?”, “nega shu yechimni tanlading?” kabi savollar orqali bola muammoni anglash, bir nechta g‘oya ilgari surish va tanlovini izohlashga urg‘u beriladi. Masalan, qurilish kublaridan ko‘prik yasash, o‘yinchoqlarni cheklangan joyga joylashtirish yoki bir buyumdan turli maqsadda foydalanish vaziyatlari funksional qo‘llash va kreativ fikrlashning dastlabki asoslarini rivojlantirishi mumkin.

TIMSS yondashuvlari maktabgacha yoshda mantiqiy-matematik va tabiiy-ilmiy tafakkurning propedevtik asoslarini tashkil etishga xizmat qiladi. TIMSS matematika frameworkida bilish, qo‘llash va mulohaza yuritish matematik kompetentlikning o‘zaro bog‘liq kognitiv domenlari sifatida tavsiflanadi [4, 15]. MTTda bu mantiq sanash, guruhlash, kattalik va shaklni taqqoslash, ketma-ketlikni davom ettirish, oddiy qonuniyatni topish, tabiat hodisasini kuzatish, taxmin qilish va natijani tekshirish orqali namoyon bo‘lishi mumkin. Bunda maqsad boladan TIMSS darajasidagi javob talab qilish emas, balki “nimani ko‘rding?”, “qaysi belgiga ko‘ra ajratding?”, “keyin nima bo‘ladi deb o‘ylaysan?”, “buni qanday tekshiramiz?” kabi savollar yordamida fikrlash jarayonini faollashtirishdir.

PIRLS yondashuvlarining maktabgacha ta’limdagi propedevtik imkoniyati esa mustaqil o‘qish tezligini tekshirishda emas, tinglangan yoki rasmli matnning mazmunini anglash, axborotni ajratish, voqealar ketma-ketligini tiklash, sodda xulosa chiqarish va fikrni asoslashda namoyon bo‘ladi. PIRLS 2026 frameworkida to‘rtinchi yil o‘quvchilari uchun to‘rtta tushunish jarayoni aniq ajratilgan [5, 8]. Maktabgacha bosqichda tarbiyachi hikoya yoki ertakni o‘qib bergach, “kim?”, “qayerda?”, “nima uchun?”, “qayerdan bilding?”, “keyin nima bo‘lishi mumkin?” kabi izchil savollar bilan bolaning mazmunni qayta qurishiga yordam beradi. D.R. Babayeva bolalar tinglagan ertaklari, o‘qib berilgan kitoblari va avvalgi tajribalari haqida fikr bildira boshlashini, kattalar bilan dialogda taassurotlarini nutqda ifodalashini ko‘rsatadi [2, 122]. Bu holat matnni anglashning dastlabki nutqiy-kommunikativ poydevori aynan maktabgacha davrda shakllanishini asoslashga xizmat qiladi.

Muhokama. Olingan nazariy natijalar PISA, TIMSS va PIRLS yondashuvlarini maktabgacha ta'lim sifatiga integratsiyalashda "erta testlashtirish" modelidan voz kechish zarurligini ko'rsatadi. Integratsiyaning pedagogik mohiyati uchta alohida xalqaro dastur nomini mashg'ulot rejasiga kiritishda emas, balki ular ta'kidlaydigan fikrlash faoliyatlarini bolaning kundalik o'yini va muloqotiga tabiiy singdirishdadir. Shunda PISA yo'nalishi funksional-amaliy va kreativ faoliyatga, TIMSS yo'nalishi mantiqiy-tadqiqiy faoliyatga, PIRLS yo'nalishi esa nutqiy-mazmuniy faoliyatga metodik tayanch beradi. Ushbu uch yo'nalish bir-biridan uzilmagan: bola tajriba jarayonida kuzatadi va taqqoslaydi, natijani so'z bilan tushuntiradi, muammo yuzaga kelganda esa boshqa yechim izlaydi. Maktabgacha ta'lim sifatini shu asosda baholashda ham bolaning xalqaro testga o'xshash topshiriqni nechog'li bajargani emas, uning faoliyatidagi sifat o'zgarishlari muhim: vaziyatni tushunishi, savol berishi, predmetlarni belgisiga ko'ra guruhlashi, sodda sababiy bog'lanishni tushuntirishi, tinglangan matndan kerakli axborotni ajratishi, yechim variantini taklif qilishi va fikrini asoslay olishi. Qodirova va hammualliflarning ta'kidlashicha, bolaga bilim berishning o'zi yetarli emas, uni olgan bilimidan aqliy va amaliy vazifalarni hal etishda foydalanishga o'rgatish zarur [1, 159]. Mazkur fikr xalqaro baholash yondashuvlarini maktabgacha ta'limga propedevtik integratsiyalashning milliy pedagogik asosini kuchaytiradi.

Xulosa. Shunday qilib, PISA, TIMSS va PIRLS yondashuvlaridan maktabgacha ta'lim sifatini oshirishda foydalanish ularning testlarini maktabgacha yoshdagi bolalarga tatbiq etishni anglatmaydi. Asosiy vazifa – keyingi ta'lim bosqichlarida murakkablashib boradigan funksional savodxonlik, mantiqiy-matematik va tabiiy-ilmiy tafakkur, matnni anglash, muammoni hal qilish hamda kreativ fikrlashning yoshga mos propedevtik asoslarini yaratishdir. Buning uchun o'yin va hayotiy vaziyat, kuzatish va sodda tajriba, taqqoslash va guruhlash, tinglangan matn yuzasidan dialog, taxmin qilish va yechimni tushuntirish kabi faoliyatlar maktabgacha ta'lim jarayoniga tizimli kiritilishi maqsadga muvofiq. Bunday yondashuvda xalqaro baholash dasturlari MTT uchun baholash testi emas, balki bolaning bilish, fikrlash va kommunikativ faolligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodologik orientir vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirova F.R., Toshpo'latova Sh.Q., Kayumova N.M., A'zamova M.N. Maktabgacha pedagogika. T.: Tafakkur, 2019. 684-b. – ISBN 978-9943-24-220-3.

2. Babayeva D.R. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. T.: Barkamol Fayz Media, 2018. 432-b. ISBN 978-9943-5518-1-7.

3. OECD. PISA 2022 Assessment and Analytical Framework. Paris: OECD Publishing, 2023. 291 p. – DOI: 10.1787/dfe0bf9c-en.

4. Philpot R., Lindquist M., Mullis I.V.S., Aldrich C.E.A. TIMSS 2023 Mathematics Framework // Mullis I.V.S., Martin M.O., von Davier M. (eds.). TIMSS 2023 Assessment Frameworks. Chestnut Hill, MA: TIMSS & PIRLS International Study Center, Boston College, 2021.

5. Sabatini J., Kennedy A., Wry E., von Davier M. PIRLS 2026 Reading Assessment Framework // von Davier M., Kennedy A. (eds.). PIRLS 2026 Assessment Frameworks. Chestnut Hill, MA: TIMSS & PIRLS International Study Center, Boston College, 2024.

MUNDARIJA

U.B.Ismoilov
MOBIL TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA TALABALARNING MUSTAQIL NOTIQLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING DIDAKTIK ASOSLARI 195 201

Parpiev Tursunboy Hojiyevich
SHERALI JO'RAYEV QO'SHIQLARINING YOSHLAR MA'NAVIY TARBIYASIGA TA'SIRINI BAHOLASHNING PEDAGOGIK MEZONLARI 202 205

G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich
SUN'IY INTELLEKT DAVRIDA TA'LIM TRANSFORMATSIYASI..... 206 210

Umarov Azizbek Vaxobovich
PEDAGOGIKA YO'NALISHI TALABALARIDA MEDIAKOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING MAVJUD HOLATI VA MUAMMOLARI 211 215

Umarov Azizbek Vaxobovich
MEDIAKOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROTLI YONDASHUVNING PEDAGOGIK MOHIYATI VA IMKONIYATLARI 216 220

Turg'untoshev Muxlisbek Ilhomjon o'g'li
TALABALARNING JISMONIY FAOLLIGI VA SOG'LOM OVQATLANISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR 221 226

Abdullayev Muxammadimin Egamberdiyevich
ETNOPEDAGOGIK QADRIYATLAR – O'QUVCHI-YOSHLARDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHNING ASOSI SIFATIDA 227 231

Q.Q.Toshtemirov
INKLYUZIV TA'LIMDA BOLALARNI MUSIQIY TARBIYALASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH..... 232 238

Xabibullayeva Madinaxon Muxtorjon qizi
TA'LIM MUHITIDA PSIXOLOGIK XAVFSIZLIK DARAJASINI DIAGNOSTIKA QILISH VA PEDAGOGIK TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI 239 243

A.A.Zaparov, M.D.Samatova
EKONOMETRIKANI O'QITISHDA TALABALARNING KREATIV FIKRLASH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI 244 249

Mamasodiqova Xusnida Rahimjon qizi
XALQARO BAHOLASH DASTURLARI (PISA, TIMSS, PIRLS) YONDASHUVLARI ASOSIDA MAKTABGACHA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH..... 250 252

Abduvaxobova Mubinaxon Azizbek qizi
O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA EMOTSIONAL KONSEPTLARNING FRAZEOLOGIK VERBALIZATSIYASI: LINGVOKOGNITIV VA LINGVOMADANIY TAHLIL 253 257

